JOURNALS & BOOKS

ACADEMIC SCIENCE PUBLISHING

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

“O‘ZBEKISTONDA ILM-FAN VA TA’LIMNING DOLZARB MASALALARI: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR”



19-SENTABR 2026-YIL

academscience.com

TOSHKENT

Google Scholar | Zenodo | OpenAIRE

Academic Sciense Puplishing,

Academic Research Publisher hamda

UniScience Journali hamkorligida

****

«O‘ZBEKISTONDA ILM-FAN VA TA’LIMNING DOLZARB MASALALARI: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR»

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami.

Toshkent

19-sentabr, 2026-yil

****

O‘zbekistonda ilm-fan va ta’limning dolzarb masalalari: muammolar, yechimlar va istiqbollar // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent. 19-sentabr, 2026.

Konferensiya tahririyat a’zolari

Temnova L.V. - DSc, Professor (Moscow, Russia); **Sagatbayev Y.N. -** PhD, professor (Astana, Kazakhstan); **Duyshenaliev CH.D. -** DSc, Professor (Bishkek, Kyrgyzstan); **Pashkov S.V. -** PhD, professor (Petropavlovsk, Kazakhstan); **Khakimov K.A. -** PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); **Melekoglu M. -** DSc, professor (Eskisehir, Turkey); **Jurayev J**. - PhD, docent (Samarkand, Uzbekistan); **Azimov S.** -PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); **Shonazarov J**. -PhD, docent (Qarshi, Uzbekistan); **Gapparov B**. - Docent, (Jizzakh, Uzbekistan); **Qo‘shayev T**. - Teacher, (Termiz, Uzbekistan); **Arifxodjayeva L**. - Teacher, (Tashkent, Uzbekstan)

„O‘zbekistonda ilm-fan va ta’limning dolzarb masalalari: muammolar, yechimlar va istiqbollar“ mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyaning asosiy maqsadi — O‘zbekistonda ilm-fan va ta’lim sohalarida olib borilayotgan zamonaviy tadqiqotlarni bir ilmiy makonda birlashtirish, dolzarb muammolarni aniqlash va ularning ilmiy-amaliy yechimlarini muhokama qilish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish hamda istiqbolli tadqiqot yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

**Maqolalarning mazmuni, undagi ma’lumotlar, faktlar va raqamlar uchun mualliflar javobgardir.*

The proceedings of the International Scientific-Practical Conference have been discussed by the Scientific-Technical Council of the international publisher **„Academic Research Publisher“** (London, United Kingdom) and recommended for publication (18.09.2026, Protocol No. 35).

*PSEUDOMONAS AERUGINOSA*NING YOSH VA JINSGA BOG‘LIQ EPIDEMIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Safarov Sherzod Baxtiyorovich
ToshDavTU TF
safarov.sherzod007@gmail.com
Rasulov Shomurod Maxmudovich
ToshDavTU TF

Mavzuning dolzarbligi: *Pseudomonas aeruginosa* klinik jihatdan muhim opportunistik grammanfiy patogen bo‘lib, uning antimikrob preparatlarga rezistentligi zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining 2024-yilgi bakterial ustuvor patogenlar ro‘yxatida karbapenem-rezistent *P. aeruginosa* yuqori ustuvorlikdagi patogenlar guruhiga kiritilgan bo‘lib, unga qarshi yangi davolash vositalarini ishlab chiqish, infeksiyalarni oldini olish va nazorat qilish bo‘yicha tadqiqotlarni davom ettirish zarurligi ta’kidlangan. 2026-yilda JSST og‘ir ko‘p dori vositalariga rezistent grammanfiy infeksiyalar uchun yangi antibakterial preparatlarga qo‘yiladigan maqsadli talablarni e’lon qilib, karbapenem-rezistent *P. aeruginosa*ni qon oqimi infeksiyalari hamda shifoxonada orttirilgan va sun’iy nafas oldirish bilan bog‘liq bakterial pnevmoniyalarni keltirib chiqaruvchi muhim patogenlar qatorida yana qayd etdi. . Ayniqsa, bakteriyaning yuqori nafas yo‘llarida aniqlanishi bemorning klinik holati va epidemiologik anamnezi bilan birgalikda baholanishi lozim. Shu jihatdan, yuqori nafas yo‘llaridan olingan klinik materiallarda *P. aeruginosa*ni o‘z vaqtida aniqlash, ajratilgan izolyatlarni ishonchli identifikatsiya qilish hamda musbat holatlarning yosh-jins va klinik-epidemiologik xususiyatlarini o‘rganish mikrobiologik diagnostika va epidemiologik baholashni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi: Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markaziga murojaat qilgan bemorlardan olingan tomoq surtmalarida *P. aeruginosa*ning aniqlanish chastotasini baholash hamda musbat holatlarning yosh-jins va ayrim klinik-epidemiologik xususiyatlarini tahlil qilish.

Tadqiqot material va usullari: 2025-yil davomida Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi (RShTYoIM) Bakteriologik laboratoriyasida 9804 nafar alohida bemordan olingan tomoq surtmasi tekshirildi. Klinik materiallar klassik bakteriologik

usulda tekshirilib, ajratilgan mikroorganizmlarni identifikatsiya qilishda VITEK 2 avtomatlashtirilgan mikrobiologik tizimidan foydalanildi. *P. aeruginosa* aniqlangan holatlar jins va yosh guruhlari bo‘yicha tahlil qilindi. Shuningdek, bemorlarning RShTYoIMga murojaat qilishidan oldingi kasallik davomiyligi haqidagi mavjud ma’lumotlar baholandi.

Tadqiqot natijalari: 2025-yilda tekshirilgan jami 9804 nafar bemorning 155 nafarida *P. aeruginosa* aniqlandi va umumiy aniqlanish chastotasi 1,58% ni tashkil etdi. *P. aeruginosa* aniqlangan 155 nafar bemorning 97 nafari (62,6%) erkaklar, 58 nafari (37,4%) ayollar bo‘lib, musbat holatlar tarkibida erkaklarning ulushi ayollarga nisbatan yuqori bo‘ldi. Yosh bo‘yicha tahlilda 1 yoshgacha bo‘lgan bemorlar 34,8%, 1–10 yoshdagilar 29,7%, 11–20 yoshdagilar 3,2%, 21–30 yoshdagilar 3,9%, 31–40 yoshdagilar 0,6%, 41–50 yoshdagilar 2,6%, 51–60 yoshdagilar 3 nafar (1,9%), 61–70 yoshdagilar 5 nafar (3,2%), 71–80 yoshdagilar 19 nafar (12,3%) va 81–90 yoshdagilar 7,7% tashkil etdi. Musbat holatlarning yosh tarkibida 10 yoshgacha bo‘lgan bemorlar jami 64,5% ni tashkil etib, eng katta ulushni egalladi. Shuningdek, 71–90 yoshdagi bemorlar jami 20,0% bo‘ldi. Ushbu ikki yosh toifasi birgalikda *P. aeruginosa* aniqlangan barcha holatlarning 84,5% ini tashkil etdi. Klinik-epidemiologik ma’lumotlar tahlilida *P. aeruginosa* aniqlangan bemorlarning 87,0% i RShTYoIMga murojaat qilishdan oldin 4–5 kun davomida uy sharoitida kasallik belgilari bo‘lganligi aniqlandi.

Xulosa. 2025-yilda RShTYoIM Bakteriologik laboratoriyasida tekshirilgan 9804 ta tomoq surtmasining 155 tasida *P. aeruginosa* aniqlanib, uning umumiy aniqlanish chastotasi 1,58% ni tashkil etdi. Musbat holatlar tarkibida erkaklar ulushining nisbatan yuqoriligi hamda yosh bo‘yicha taqsimotning bir xil emasligi kuzatildi. Xususan, 10 yoshgacha bo‘lgan bemorlar musbat holatlarning qariyb uchdan ikki qismini, 71–90 yoshdagilar esa beshdan bir qismini tashkil etdi. Natijalardan ko‘rinib turubdiki *P. aeruginosa*ning kolonizatsiyasi immuneti past bo‘lgan bolalar va yoshi katta qariyalarda ko‘roq kuzatilmoqda. Bemorlarning uy sharoitida 4-5 kun qolishi, bakteriyaning yuqori nafas yo‘llariga chuqur kolonizatsiya bo‘lishiga sababchi bo‘lgan.